

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko'chasi, 7-uy, Tel/Faks: +998 67 226-06-61, E-mail:
sirdarya_davekspert@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig'i: Bahodirov Saidaxmad Ulug'bekovich

Sana: 10-06-2024 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

208628 - SONLI

Obyekt nomi: "Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Bunyodkor MFY Qizg'aldoq hududida Pastki qavatlarini savdo va ma'ishiy xizmat kursatish majmuasi bilan birgalikda ko'p qavatli turar-uy joy qurilishi" Blok A.	
Buyurtmachi:	MUNISAL OMAD MCHJ
Bosh loyihachi:	"TMM-ARX" xususiy korxonasi
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tender tanlovlari asosida aniqlanadi
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	012716

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent tumani qurilish va uy joy kommunal ho'jaligi bo'limining 2023 yil 8 sentyabrdagi "Obyektni ixtisosini o'zgartirish va rekonstruksiya qilishga" 1727265-129162-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Toshkent tumani qurilish va uy joy kommunal ho'jaligi bo'limining 2023 yil 8 sentyabrdagi "Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda o'z hududida qo'shimcha bino va inshootlarni qurish uchun" 1727265-129167-sonli ruxsatnomasi.

1.3. Toshkent tumani qurilish va uy joy kommunal ho'jaligi bo'limining 2023 yil 8 sentyabrdagi "Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda o'z hududida qo'shimcha bino va inshootlarni qurish uchun" 1727265-129170-sonli ruxsatnomasi.

1.4. Belgilangan tartibda tasdiqlangan va kelishilgan loyiha topshirig'i.

1.5. Toshkent viloyati Qurilish bosh boshqarmasining 2023-yil 10-iyuldagi 1727-1727265-92211-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshiriqlari.

1.6. "Geodelta" MChJning 2024-yilda muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

1.7. Buyurtmachi tashkilot bilan loyihachi tashkilot o'rtasida 2023-yil 10-yanvardagi 1-01-24-sonli shartnoma.

1.8. Davlat kadastrlari palatasining Toshkent viloyat boshqarmasining 2022 yil 1 apreldagi 1727265IR-A2572701-sonli Ko'chmas mulk obyektiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan

o'tkazilganligi to'g'risida Davlat Reestridan ko'chirma.

1.9. Davlat kadastrlari palatasining Toshkent viloyat boshqarmasining 2022 yil 24 maydagi 1727265/R-A2725795-sonli Ko'chmas mulk obyektiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida Davlat Reestridan ko'chirma.

1.10. Davlat kadastrlari palatasining Toshkent viloyat boshqarmasining 2022 yil 6 iyundagi 1727265/R-A2754521-sonli Ko'chmas mulk obyektiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida Davlat Reestridan ko'chirma.

1.11. Davlat kadastrlari palatasining Toshkent viloyat boshqarmasini Toshkent tumani filialining 2022 yil 29 apreldagi 1726280/R-A134800-sonli noturar joy toifasidagi ko'chmas mulk obyektining kadastr pasporti.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

Loyiha tarkibiga ko'ra "Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Bunyodkor MFY Qizg'aldoq hududida Pastki qavatlar savdo va ma'ishiy xizmat kursatish majmuasi bilan birgalikda ko'p qavatli turar-uy joy qurilishi" Blok A. qurilish obyekti bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarining elektron shakli.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Loyihada "Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Bunyodkor MFY Qizg'aldoq hududida Pastki qavatlar savdo va ma'ishiy xizmat kursatish majmuasi bilan birgalikda ko'p qavatli turar-uy joy qurilishi" Blok A. ishlarini amalga oshirish nazarda tutilgan.

3.2. Qurilish hududining tabiiy-iqlim sharoitlari.

Tashqi havoning qishki hisobiy harorati - minus 15 C.

Normativ shamol bosimi - $W_o = 0,45$ kPa.

Normativ qor qatlami vazni - $S_n = 0,50$ kPa.

Qurilish hududining zilzilabardoshligi - 8 ball.

Loyihaning xisobiy zilzilabardoshligi - 9 ball.

Yer osti suvlari - 8.3 metr chuqurlikda.

Tuproqning cho'kuvchanlik toifasi - I (birinchi).

Yerning muzlash chuqurligi - 0,7 m.

Binoning javobgarlik klass - III

Binoning yong'inga chidamlilik darajasi - II

Funksional yong'in xavfliligi bo'yicha klassi - F1.3

Konstruktiv yong'in xavflilik klassi - C0

3.3. Ekspertizaga topshirilgan loyiha-smeta hujjatlari:

1. Umumiy tushuntirish xati

2. Bosh reja loyihasi. BR

3. Arhitektura yechimlari. AY

4. Konstruktiv yechimlari. KY

5. Energiya samaradorligi ES

3.4. Bosh reja va arxitektura rejalashtirish yechimlari.

Bosh reja loyihasi texnik topshiriqlar asosida ishlab chiqilgan. Binolarni joylashtirish yong'in va sanitariya standartlariga muvofiq ishlab chiqarilgan va loyihaning qurilish va texnologik qismlariga qo'yiladigan talablar asosida. Vertikal tartib drenaj talablari asosida. Hudud bosh rejada qizil chiziq bilan chegaralangan. Bino atrofida yong'in hafvsizligi qoidalariga binoan o't o'chirish yo'lagi ko'zda tutilgan hamda yondosh binolari oraliq masofasi inobatga olingan. Bosh reja tuzishda obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari, atrofida tungi yoritkichlar o'rnatilishi aks ettirilgan.

Bosh rejada quyidagi binolar va inshootlar ko'zda tutilgan:

- Loyihalanayotgan turar joy binosi (Blok A);
- Loyihalanayotgan turar joy binosi (Blok B);
- Yer osti avtoturargohiga kirish va chiqish;
- Dam olish hududi va bolalar maydonchasi;
- Besedka;
- Obodonlashtirish bolalar maydonchasi bilan;
- Mavjud qurilish hududi.

3.5. Texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlar:

- hududning umumiy maydoni - 4940,00 m²
- qurilish maydoni - 2157,10 m²

3.6. Arxitektura - qurilish qismi:

12 qavatli turar – joy binosi Blok-A

Turar-joy binosi bino 12 qavatdan iborat bo'lib, 176 ta honadon loyihalashtirilgan. Bino loyiha tarhiga ko'ra to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, o'qlardagi o'lchami 18.7 x 56.4 m, umumiy balandligi 40.20 m. Turar-joy binosi tarxiga ko'ra yer osti qavatlar ikki qavatli 52 ta avtoturargohi, texnik xonalar aks ettirilgan, alohida chiqish joyi ko'zda tutilgan. 1-qavat noturar, 2-qavatdan - 12-qavatgacha 1, 2 xonali namunaviy xonadonlar mavjud. Xonalar tarkibi loyiha topshirig'iga ko'ra bajarilgan. Xonadonlar tarkibida - yo'lak, yotoqxona, oshxona, mehmonxona, yuvinish xonasi, balkon. Bino 2 podyezdli va yer osti qavatiga ega. Eng pastki yer osti qavatning poldan shiftgacha balandligi: $h=2.85\text{m}$, poldan-polgacha $h=3.05\text{m}$. Yer osti qavatning poldan shiftgacha balandligi: $h=2.92\text{ m}$, poldan-polgacha $h=3.18\text{m}$. 1-chi qavatning poldan shiftgacha balandligi: $h=3.64\text{m}$, poldan-polgacha $h=3.90\text{m}$. 2-12 qavatlar poldan shiftgacha balandliklari $h=3.04\text{m}$, poldan-polgacha $h=3.3\text{m}$. Binoga 2 ta kirish yo'lagi ko'zda tutilgan. 1-qavatga kirishda zina va pandus loyihalashtirilgan. Binoda H1 turidagi 2 ta zinapoya katakchasi va 4 ta lift joylashtirilgan.

3.7. Energiya samaradorlik:

SHNK 1.03.01 p5. talablariga muvofiq binoning energiya pasportini o'z ichiga olgan "energiya samaradorligi" yechimi, 10.5-bandning 2.03.10-2019-bandiga va tashqi issiqlik izolyatsiyaning muvofiq ishlab chiqilgan.

SHNK 1.03.01 va 2.03.10-2019 muvofiq ilova 10.5 talablariga muvofiq binoning energiya pasporti taqdim qilingan.

KMK 2.01.04 2018 issiqlik muhandislik hisobi. 2-issiqlik himoya darajasi ishlab chiqilingan.

Binoda 0,535 kVt lik 72 dona, jami quvvati 38,52 kVt quyosh panellari o'rnatilishi rajalashtirilgan, hamda 2,5 kVt li, 12 dona quyosh suv isitgich kollektorlar tizimlaridan foydalanish ham nazarda tutilgan, hamda issiq suv saqlash maqsadida umumiy hajmi 2800 litrlik boyler ko'zda tutilgan, har biri 700 litr li.

12 qavatli turar – joy binosi 176 honadonli bo'lib quyidagicha honadonlardan iborat:

1-honali honadon - 44 dona;

2-honali honadon - 132 dona.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar:

Qurilish maydon - 1075.70 m²

Umumiy maydon - 13601.50 m²;

Qurilish hajmi - 50600.93 m³;

3.8. Ichki pardoqlash:

Devorlar va pardevorlar – Gazabeton, gipsli suvoq (shtukaturka), yakunlovchi toza suvoq, yengil tonlarda suv emulsiyasi bo'yoqlar bilan bo'yash.

Pol – keramik plitka, laminat, keramogranit, beton

Eshiklar – MDF

Shift – GKL suvoq, suvli bo'yoq bilan bo'yalgan, Plastik

3.9.Tashqi pardoqlash:

Devorlari – Gazabeton, 100 mm bazalt izolyatsiyasi bilan qo'plangan, travrtin yakunlovchi suvoq, engil tonlarda suv emulsiyasi bo'yoqlar bilan bo'yash.

Poypesh – Granit plita.

Eshiklar - tashqi individual metall ishlab chiqaruvchining eskizlari bo'yicha, polga mustahkam mahkamlanga.

Oynalar – PVX profilli

Vitraj - Alyumin ramali

Binoga kirish qismida – zina va pandus mavjud (ustki qoplamasi granit).

3.10. Turar joy kompleksi konstruktiv echim:

Bino quyidagi tuzilmalardan iborat.

Asoslar-tuproq yostig'i (gruntovaya podushka)

Poydevorlar qalinligi 1300 mm bo'lgan B25 sinfidagi monolitik temir-beton plita qilingan.

Yer to'la devorlari monolit temir beton.

Devorlari $\pm 0,00$ dan yuqori - M600 markali gaz blok, pardevorlar-armosetka va g'isht terilgan.

Ustunlar – B30 sinfidagi monolitik temir-beton.

Rigel - B25 sinfidagi monolitik temir-beton.

Serdechniklar monolit temir-beton.

Peremichkalar - monolit temir-beton.

Orayopma - B25 sinfidagi monolit temir-beton, qalinligi 220mm.

Tom-chordoqli, ikki nishabli.

Tom yopish – bo'yalgan profnastil

Derazalar - Ikki oynali PVX derazalar.

Eshiklar - ichki kirish eshiklari MDF materialidan, tashqi kirish eshiklari metallidan.

Pol-laminat, keramik plitkalar, beton

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Elektr ta'minoti:

Loyiha hujjatlarida obyektning ichki elektr ta'minoti loyihasi taqdim qilingan bo'lib umumiy ko'rsatmalar qismida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra loyihalanayotgan ob'ekt elektr ta'minotining ishonchligi darajasiga ko'ra – II toifaga kiritilgan. Binoning elektr ta'minoti tashqi elektr taqsimlash qurilmalari orqali 380 V kuchlanishdagi ikkita kabel tarmoqlari yordamida elektr bilan taminlanadi. Loyihaga ko'ra asosiy elektr taqsimlash shitlari VRU-1 o'rnatilishi nazarda tutilgan. VRU-1 sifatida VRU1-13-10 UXL4 turidagi shit tanlangan. Elektr energiya hisobi uchun VRU-1 ning kirish qismiga elektr hisoblagichi va 400/5 nisbatdagi tok transformatorlari o'rnatilishi ko'rsatib o'tilgan. Loyihada 2-12 qavatlarida qavat shitlari o'rnatilgan. Qavatlardagi xonadonlar uchun ShK turidagi elektr taqsimlovchi shitlarning o'rnatilishi loyihada keltirilib o'tilgan. Xonadonlarning elektr yoritish qurilmalari sifatida zamonaviy LED chiroqlari o'rnatilishi nazarda tutilgan. Loyihadagi asosiy elektr taqsimlovchi shitlarning quvvatlari: VRU-1 ning o'rnatilgan quvvati $R_o = 466,54$ kVt, hisoblangan quvvati $R_h = 427,7$ kVt, hisobiy toki $I_h = 724,9$ A ni tashkil qilgan. Loyihada binoning tom qismiga quvvati 535 Vt bo'lgan 72 dona quyosh panellari o'rnatilgan bo'lib, bular quvvati 40 kVt

bo'lgan invertor orqali tarmoqqa ulanishi ko'rsatib o'tilgan. Loyihada VVGng turidagi turli kesimdagi kabellardan foydalanilgan.

4.2. Suv ta'minoti:

Binoda ichimlik suvi aylanma tizimda loyihalangan va asosiy quvurlar yer to'lada joylashgan. Binodagi ichimlik suvi uchun plastmassa suv quvurlari ishlatilgan. Suvni o'lchash uchun yer to'lada va har bir xonadonda suv hisoblagichlar o'rnatilgan.

Binoning issiq suv ta'minoti xonadonlardagi suv isitgichlar orqali va quyosh kollektorlaridan amalga oshiriladi. Binodagi issiq suv ta'minoti uchun plastmassa suv quvurlari ishlatilgan.

Bino kanalizatsiya tizimi binodan plastmassa quvurlar yordamida tashqi kanalizatsiya tarmoqlariga o'lanadi.

4.3. Isitish va shamollatish tizimlarini loyihalashda:

Issiqlik ta'minoti manbai etib -loyiha buyicha xar bir xonadonda devorga o'rnatiladigan gaz 2 konturli qozonlari (12,18,24 kVt kuvvatli) nazarda tutilgan. Gaz kozonlari isitish va issiq suv ta'minoti tizimlari uchun ishlatiladi. Loyixada isitish tizimi gorizontal ikki quvurli, nasosli tizim sifatida qabul qilingan. Isitish tizimi uchun issik suv parametrlari 80-60 °C bo'lgan suvdur. Alyumin radiatorlar isitish moslamalari sifatida ishlatiladi. Pollar va devorlar kesishmasida yotqizilgan quvurlar yonuvchan bo'lmagan materiallardan yasalgan yenglarda utkaziladi. Tizimning quvurlari polipropilendan tayyorlangan, PPR PN-25 turi, D20x3.4; D25x4.2. Issitish tizimini tartibga solish uchun issiqlik uzatish kuvurlari va ularning ulanishlarida isitish moslamalarini o'chirish imkoniyati bor klapanlar yetkazib berish va qaytarish quvurlariga o'rnatilgan. Isitish tizimlaridan havoni olib tashlash uchun isitish alyumin radiator moslamalarining yuqori nuqtasiga o'rnatilgan yarim avtomatik havo chikargichlar orqali ta'minlanadi. Isitish tizimlarining ko'targichlaridan suv tizimning pastki nuqtalarida joylashgan drenaj klapanlari yordamida chiqariladi. Barcha magistral quvurlar va ko'targichlar izolyatsiya qilingan. Qavatlar, ichki devorlar va bo'linmalar kesishmasidagi quvurlar yonmaydigan materiallardan yasalgan yenglarga yotqizilgan. Loyixada zamonaviy tejamkor va energiyani iqtisod qiladigan texnologiyalarni joriy etish asosida, yoqilg'i-energetika resurslaridan samarali va oqilona foydalanish maqsadida sirkulyatsion nasos tizimli quyosh kollektorlaridan issiqlik ta'minoti ishlab chiqarilgan.

Shamollatish tizimlari bo'yicha:

Turar-joy binolarida shamollatish mexanik va tabiiy uslub buyicha muljallangan. Xonalarda havo almashinuvi hisoblash yo'li bilan aniqlangan va shuningdek, havo ta'minotining sanitariya normasi buyicha xisoblangan. Shamollatish tizimlari barcha turar-joy qavatlarining hammom va oshxonalarida o'rnatilgan. Binoning turar-joy bo'lmagan qavatida shamollatish mexanik uslub orqali qabul qilingan. Tabiiy va mexanik uslub shamollatish turar-joy binolarida ta'minlanadi, xavo oqimi uyushmagan va derazalarning ochilish orqali amalga oshiriladi. Havoni chikarib tashlash uchun qurilish loyixalarida vertikal shamollatish kanallari, ularga havo panjaralari orkali alohida sun'iy yo'ldosh kanallari bilan mo'ljallangan. Kvartiralardagi kanallarga sozlanishi uchun xavo panjaralari o'rnatilgan. Ichkari xonalar havosining chiqishi tomning tepasiga chikarish bilin muljallangan. Yonginga karshi shamollatish tizimlari loyixada uz yechimini topgan. Komfort sharoitlarni yaratish maksadida konditsionerlar urnatilgan.

4.4. Gaz ta'minoti texnologik yechimi:

Loyiha Hududgaz Toshkent" GTF tomonidan 16 fevral 2024 yil berilgan 054264-sonli texnik shartga muvofiq harakatdagi mavjud yer usti o'rta bosimli gaz tarmog'iga ulanishni nazarda tutadi. Gaz quvurining diametri D-700 mm. Gaz iste'moli loyixa buyicha soatiga 430,0 nm3 da hisoblangan. Ulanish nuqtasiga masofa - 400 p/m. Gaz quvurini yotqizish GOST 10704-91

bo'yicha po'lat quvurlardan yer usti va bino fasadi orkali ta'minlangan.

Turar-joy binolarini gaz bilan ta'minlash tizimi ikki bosqichli bo'lishi mo'ljallangan:

-O'rtacha bosimli R-0,3 MPa gaz quvuri.

- Past bosimli gaz quvuri R-0,003 MPa.

Yer usti gaz quvuri tayanchlarga va binolarning jabhasi bo'ylab o'rnatiladi.

Hammasi bo'lib, loyihada o'rnatish uchun qabul qilingan:

1. Gaz plitasi PG4-176 dona.

2. Ikki konturli gaz kozoni -176 dona.

Gazni o'lchash uchun "G4" va "G6" turidagi gaz hisoblagichlari o'rnatilgan.

Ichki gaz quvurlari D57x3,0; D42,3x2,8; D21,3x2,8 mm po'lat suv va gaz quvurlaridan ishlab chiqilgan. GOST 3262-75*. Armatura va ehtiyot qismlar loyiha standartlariga muvofiq ishlab chiqarilishi kerak 5.905-25-05 va GOST 17375-2001.

Yer usti gaz quvurini atmosfera korroziyasidan himoya qilish astar va bo'yoq qoplamasi bilan ikki marta buyalish bilan ta'minlanadi.

Gaz quvurlarining diametrlari iste'molchiga normal va iqtisodiy gaz yetkazib berishni ta'minlash shartlaridan kelib chiqqan holda gidravlik hisoblash yo'li bilan aniqlangan.

Yer usti gaz quvurining deformatsiyalarini qoplash bo'ylama relef, gaz quvurining burilishlari va kompensatorlarni o'rnatish orkali amalga oshiriladi.

Gaz quvurining oshxonalarga kiraverishida favqulodda holatlarda gaz ta'minoti quvurini gaz ta'minotidan o'chirish uchun gaz signalizatorlari o'rnatilgan.

Shuningdek, loyihada gazni mexanik aralashmalardan tozalash uchun har bir kvartirada hisoblagichlargacha gaz quvuriga filtr o'rnatilgan.

4.5. Yong'in signalizatsiyasi.

Loyihaning ushbu bo'limi dizayn xususiyatlari va QMQ 2.04.20-98, MKM 01-04 ga muvofiq ishlab chiqilgan. Loyiha xavfsizlik va yong'in signalizatsiya tarmoqlarini o'rnatishni nazarda tutadi. Abonent tarmog'i (KSVVG-2x0,5 mm²) ochiq simli va PVX kabel kanallarida olib boriladi va dahliz o't o'chirish stantsiyasida o'rnatilgan Pribor priyomnokontrolniy i upravleniya oxrana pojarniy "Rubej 2 OP" rusumli boshqaruv panellariga chiqariladi. Yong'in va o'g'irlik signalizatsiyasining elektr qabul qiluvchilarini elektr ta'minoti 1 - toifaga kiradi va bitta mustaqil quvvat manbalaridan amalga oshiriladi. Asosiy quvvat 220V, 50Gts o'zgaruvchan tok bilan ta'minlanadi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1.O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi Toshkent viloyati Qurilish bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va Shaharsozlik kengashi ishchi organining 2024-yil 14-martdagi 116892032-sonli xulosasi.

5.2. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, Atrof-muhitni muhofaza qilish va Iqlim o'zgarishi vazirligi Davlat Ekologik Ekspertizasi markazi Toshkent viloyati filialining 2023-yil 26-oktabrdagi 05/2-2200-sonli Davlat Ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.3."Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Toshkent hududiy filialining elektr tarmoqlariga ulanish uchun 2024-yil 29-martdagi 43-29/885-sonli texnik sharti.

5.4."Toshkent shahar suv ta'minoti" MChJning 2024-yil 29-martdagi 270/4-980-sonli texnik shart.

5.5."Hududgaz Toshkent" GTF tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihaini ishlab chiqish va gazlashtirishga 2024 yil 16 fevraldagi 054264-sonli texnik sharti.

5.6. Buyurtmachi "Munisal omad" MChJning 2024 yil 24 maydagi 11-sonli murojaat xati

5.7. Ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **88 108 067 687** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **8 577 707 918** so'mga kamaytirilib, **79 530 359 769** so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **68 152 751 984** so'm

Asbob-uskunalar: **2 856 497 810** so'm

QQS: **8 521 109 975** so'm

6.1. Smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Ekspertiza jarayonida soxa ekspertlari xulosasi izohlari buyurtmachi va loyihachi tomonidan qabul qilinib, loyihaga tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.3. Obyektning qurilish narxi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar, birja, amaldagi (haqiqiy, bozor sharoitlariga ko'ra) narxlar va joriy vaqtda faoliyat olib borayotgan internetdagi bozor narxlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim etilgan.

Chet el uskunalari, mebel va inventarlarning narxi ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmadi.

Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnoma tuzishga asos bo'la olmaydi.

6.4. O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi 684-son Qonuni va O'zbekiston Respublkasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan yangi qurilish ishlari narxi bo'yicha asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

6.5. Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan pudratchining boshqa harajatlari miqdori bo'yicha "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi qilish Respublika markazi" DM Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatini o'z zimmasiga olmaydi.

6.6. Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugatgandan so'ng, nazorat o'lchovi natijalariga ko'ra, haqqoniy bajarilgan ish hajmiga muvofiq belgilanadi.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 4-bandiga asosan "Qurilishi markazlashtirilgan manba'lar hisobiga moliyalashtiriladigan obyektlarning boshlang'ich qiymati Davlat statistika qo'mitasi rasmiy saytiga (stat.uz) joylashtirib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizimlar xizmati uchun o'rtacha narxlar hamda o'rtacha ish haqi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda shakllantiriladi" hamda mazkur qarorning 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.8. Taqdim qilingan lokal hulosaga javob hujjatlarining haqqoniyligi, sifati va ishonchliligi uchun buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Bunyodkor MFY Qizg'aldoq hududida Pastki qavatlar savdo va ma'ishiy xizmat kursatish majmuasi bilan birgalikda ko'p qavatli turar-uy joy qurilishi" Blok A. qurilish ishlari yuzasidan loyiha smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish va kelishish uchun tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Elmurodov Asliddin Kulmurodovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Ubaydullayev Azizbek Baxodirovich, Elmurodov Asliddin Kulmurodovich, Kosherbaev Muratbek Abatovich, Shukurov Rustam Sunnatovich, Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Ibragimov Ismoil Xabibullayevich, Ikromov Muxiddin Sodiqovich, Niyazov Alisher Maxmudovich, Abdullayev Otabek Nasrullayevich